



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS  
**YOSH XUSUSIYATLARI PSIXOLOGIYASI NUQTAYI  
NAZARIDAN QOZOQ TILI DARSLIKLARINI TAHLIL QILISH**

**Saidova Nargiza**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU o'qituvchisi*

**Adixanov Alixan**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Qozoq tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablari uchun yaratilgan qozoq tili darsliklari o'quvchilarning yosh xususiyatlari psixologiyasi asosida tahlil qilinadi. Darsliklarning til material, metodik qurilishi, mavzularning bosqichma-bosqich murakkablashuvi, o'quvchilarning idrok, tafakkur, xotira, nutq va qiziqish rivojlanishiga mosligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, darsliklarning psixologik-pedagogik talablarga qanchalik javob berishi, o'quv jarayonida kommunikativ yondashuvning samaradorligi, faol ta'lim elementlarining qo'llanishi ham ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi. Tadqiqot natijasida darsliklarni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Yosh xususiyatlari psixologiyasi, qozoq tili darsliklari, ta'lim metodikasi, idrok, tafakkur, til kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, darslik tahlili.

**Аннотация:** В данной статье анализируются учебники казахского языка, созданные для средних школ с учетом психологии возрастных особенностей учащихся. Рассматриваются языковой материал учебников, методическая структура, постепенное усложнение тем, а также их соответствие развитию восприятия, мышления, памяти, речи и интересов учащихся. Также с научной точки зрения оценивается соответствие учебников психолого-педагогическим требованиям, эффективность коммуникативного подхода в учебном процессе и использование элементов активного обучения. В результате исследования даны предложения и рекомендации по совершенствованию учебников.

**Ключевые слова:** Психология возрастных особенностей, учебники казахского языка, методика обучения, восприятие, мышление, языковая компетенция, коммуникативный подход, анализ учебника.

**Abstract:** This article analyzes Kazakh language textbooks created for secondary schools based on the psychology of age characteristics of students. The language material of the textbooks, methodological structure, gradual complexity of topics, and their suitability for the development of students' perception, thinking, memory, speech, and interest are considered. Also, the extent to which the textbooks meet psychological and pedagogical requirements, the effectiveness of the communicative approach in the educational process, and the use of active learning elements are evaluated from a scientific point of view. As a result of the study, suggestions and recommendations are made for improving the textbooks.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Keywords:** *Psychology of age characteristics, Kazakh language textbooks, educational methodology, perception, thinking, language competence, communicative approach, textbook analysis.*

### Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida turkiy tillar, xususan qozoq tilini o'qitishning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Til o'rganish jarayoni nafaqat lingvistik kompetensiyani shakllantirish, balki o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni to'g'ri tashkil etishni ham talab etadi. Yosh xususiyatlari psixologiyasi ta'lim jarayonida bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, bu esa darsliklar tuzilishiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy qozoq tili darsliklari mazmuni o'quvchilar yoshiga mos ravishda tuzilishi, ularning bilim olish sur'ati, nutqiy ehtiyoji, qiziqishlari, hayotiy tajribasi va psixik rivojlanish darajasiga mos bo'lishi juda muhimdir. Mazkur maqolada darsliklar psixologik jihatdan qanchalik asoslanganligi, o'quvchilarning psixik jarayonlariga ta'siri, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli atroflicha o'rganiladi.

### Asosiy qism


Yosh xususiyatlari psixologiyasi insonning turli yosh davrlarida psixik jarayonlarining shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanishini o'rganadigan psixologiya sohasi bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Mazkur yo'nalishning ilmiy mohiyati shundan iboratki, bola, o'smir va o'spirinlik davrida shaxsning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, emotsional holat va motivatsiya kabi psixik jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir bosqich o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'ladi. Inson rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lsa-da, psixologlar har bir yosh davrining ustun faoliyat turiga alohida e'tibor qaratadilar. L.S. Vigotskiy fikriga ko'ra, har bir yosh bosqichida bolaning rivojlanishida yetakchi faoliyat turi mavjud bo'lib, aynan o'sha faoliyat bolaning psixik rivojlanishini belgilaydi. Masalan, maktabgacha yoshda o'yin, boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati, o'rta yoshda ijtimoiy muloqot va o'spirinlik davrida mustaqil o'zini anglash jarayoni kuchayadi. J. Piaje esa bilish jarayonining rivojlanish bosqichlarini izchil izohlab, bolalarning fikrlashi ma'lum yoshgacha konkret tafakkurga, keyin esa mavhum tafakkurga o'tishini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bola atrof-muhitni ko'proq sezgi va obrazlar orqali qabul qiladi, boshlang'ich sinfda esa aqliy operatsiyalar rivojlana boshlaydi. A.N. Leontev va D.B. Elkoninlar ta'lim va faoliyatning bola psixikasiga ta'sirini chuqur tahlil qilib, psixik rivojlanish ijtimoiy tajriba va faoliyat orqali shakllanishini isbotlagan. Yosh psixologiyasining asosiy tamoyillaridan biri — o'quv jarayonini bolaning rivojlanish darajasiga moslashtirishdir. Bolaning diqqatining barqarorligi, hajmi va boshqarilishi ham yoshga qarab o'zgarib boradi: boshlang'ich yoshda diqqat ko'proq majburiy emas, tez chalg'iydi, o'rta yoshda barqarorlashadi, yuqori sinflarda esa maqsadga yo'naltirilgan va boshqariladigan shaklga ega bo'ladi. Xotira ham shunga yarasha rivojlanadi: avval





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'proq ixtiyorsiz, keyin esa ixtiyoriy xotira kuchayib, mnemonik strategiyalardan foydalanish shakllanadi. Nutq rivoji ham bosqichma-bosqich murakkablashib boradi — kichik yoshda passiv lug'at faol lug'atdan keng bo'ladi, maktab davrida esa tushunchaviy nutq rivojlanib, grammatik tuzilmalar to'liq shakllanadi. O'smirlik davrida muloqot va o'zini anglash ehtiyoji kuchaygani sababli nutq mustaqil fikrlashni ifodalovchi vositaga aylanadi. Yosh xususiyatlari psixologiyasining nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmuni, metodikasi va darsliklar tuzilishi o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi zarur. Rivojlanishning ijtimoiy va biologik omillari o'zaro uyg'unlikda kechadi, shu bois pedagogik jarayon bolaning fiziologik imkoniyatlari bilan bir qatorda uning psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi va individual rivojlanish sur'atini ham hisobga olishi lozim. Ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun o'quv materialining murakkablik darajasi, tushunchalar hajmi, topshiriqlar turi o'quvchilarning psixik rivojlanish bosqichlariga mos kelishi, shuningdek, o'quvchining mustaqil fikrlashi va faol bilish jarayonini qo'llab-quvvatlashi kerak. Yosh psixologiyasi nazariyasi o'qituvchiga nafaqat bilim berish, balki o'quvchining psixik rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari ularning bilish jarayonlari, emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Maktabga qadam qo'ygan bola yangi faoliyat — o'quv faoliyatiga moslashadi va shu jarayonda uning psixik rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Boshlang'ich sinf davrida bola idroki ko'proq konkret obrazlarga tayanadi, abstrakt fikrlash hali yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Ular rangli, ko'rgazmali materiallarni tez qabul qiladi, diqqatlari tez chalg'iydi, shuning uchun dars jarayonida turli xil faoliyat turlarini almashtirib borish, o'yin elementlarini qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi. Bu davrda ixtiyorsiz diqqat ustun bo'lib, o'quvchining diqqatini bir nuqtaga uzoq muddat jamlay olmasligi tabiiy holat hisoblanadi. Xotira ham sezgi va obrazli yodlashga tayangan bo'lib, takrorlash orqali mustahkamlanadi. Bolaning nutqi izchil rivojlanadi, ammo grammatik jihatdan to'liq shakllanmagan bo'lishi mumkin. O'rta sinf o'quvchilari psixologik jihatdan ancha barqaror bo'lib, mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi, mavhum tushunchalarni qabul qilish qobiliyati ortadi. Ular sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunishga intiladi, o'z fikrini aniq ifodalashga harakat qiladi. Diqqatning barqarorligi ortib, ixtiyoriy diqqat rivojlanadi, xotiraning mantiqiy turi kuchayadi, o'quvchi bilimni mazmunan tushunib yodlay boshlaydi. Bu davrda tengdoshlar bilan muloqot yetakchi o'rin egallaydi, o'zligini namoyon qilish ehtiyoji kuchayadi. O'quvchilarda mustaqil o'qish, izlanish, savol berish, bahs-munozaralarda ishtirok etish qobiliyati o'sadi. Yuqori sinf o'quvchilari esa abstrakt va tizimli fikrlashga ega bo'lib, ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglay oladi, umumlashtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlari takomillashadi. Ular motivatsiya nuqtayi nazaridan kasb tanlash, kelajak rejalari, ijtimoiy o'rnini aniqlash kabi masalalar bilan ko'proq shug'ullana boshlaydi. Shaxsiy identifikatsiya jarayoni





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kuchayadi, o'z fikrini mustaqil himoya qilish ehtiyoji ortadi. Emotsional jihatdan yuqori sinf o'quvchilari sezgir, ba'zan beqaror bo'lishi mumkin, chunki ularning ichki kechinmalari ijtimoiy mavqe va o'ziga bo'lgan baho bilan chambarchas bog'liq. Maktab yoshidagi barcha o'quvchilarda bilish jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanib boradi, shuning uchun ta'lim mazmunini ularning psixologik imkoniyatlariga moslashtirish zarur. O'qitish jarayonida o'quvchilarning yoshiga mos motivatsiya yaratish, ularning faol ishtirokini ta'minlash, muloqotga kirishishi va mustaqil fikrlashini rivojlantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Shuningdek, har bir yosh davri o'ziga xos psixologik ehtiyojlar va qiziqishlarga ega bo'lgani uchun darsliklar, mashqlar va metodik yondashuvlar ham shu xususiyatlarga mos bo'lishi lozim. Qozoq tili darsliklarini yaratishda yoshga moslik tamoyillari muhim metodik va psixologik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki til o'rganish jarayoni o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, qiziqishlari, psixik rivojlanish bosqichlari va pedagogik ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Darslik mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilganda, o'quv jarayoni samaraliroq bo'ladi, til ko'nikmalari esa tabiiy va izchil shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tuzilgan qozoq tili darsliklarida materiallarning soddaligi, ko'rgazmaliligi va amaliy yo'nalganligi ustuvor bo'lishi zarur, chunki bu yoshdagi bolalar konkret obrazli tafakkurga ega bo'lib, rangli tasvirlar, qisqa matnlar, sodda gaplar, o'yin shaklidagi topshiriqlar orqali bilimni tezroq qabul qiladilar. Ular uchun til materiali murakkab bo'lmasligi, leksik minimum aniq belgilangan bo'lishi va grammatik qoidalar oddiy, hayotiy misollar orqali tushuntirilishi kerak. O'rta sinf o'quvchilari esa mavhum tushunchalarni qabul qilishga, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunishga qodir bo'lib boradi. Shu sababli darsliklarda grammatik qoidalarni mustaqil qo'llashga yo'naltirilgan mashqlar, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi matnlar, dialoglar va kommunikativ vaziyatlar ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu bosqichda o'quvchilar tengdoshlari bilan muloqotga kirishishni yaxshi ko'rganlari uchun darsliklar ularda suhbatlashish, fikr almashish, rolli o'yinlar o'tkazish kabi faol nutqiy mashg'ulotlarni rag'batlantirishi lozim. Yuqori sinf o'quvchilari uchun darsliklar murakkabroq mazmunga ega bo'lishi, ilmiy-ommabop matnlar, tahlil qilishni talab qiladigan topshiriqlar, munozara va bahsga chorlovchi mavzularni o'z ichiga olishi zarur. Bu yoshda o'quvchilarda abstrakt tafakkur rivojlangan bo'lgani sababli darsliklar ularning mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, matnni sharhlash, tilning stilistik imkoniyatlarini anglash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Shu bilan birga, barcha yosh guruhlari uchun darsliklar izchillik, tizimlilik, bosqichma-bosqichlik tamoyillariga asoslanishi, til materiali oddiydan murakkabga qarab ketma-ketlikda berilishi muhimdir. Darsliklarning vizual jihatdan boyitilishi, zamonaviy interfaol elementlar bilan boyitilishi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, chunki yosh avlod multimedia orqali berilgan materialni tezroq o'zlashtiradi. Shuningdek, darsliklarda xalq og'zaki ijodiy namunalari, milliy qadriyatlar, madaniy kontekstlar yoshdan yoshga mos tarzda berilishi o'quvchilarning tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniy meros sifatida qabul





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qilishiga yordam beradi. Umuman olganda, qozoq tili darsliklarining yoshga moslik tamoyillari nafaqat pedagogik, balki psixologik qonuniyatlarga tayanib, til o'rgatish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi va o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi. Qozoq tili darsliklarini takomillashtirish o'quvchilarning yoshiga mos psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, til o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator metodik, mazmuniy va texnologik choralarni amalga oshirishni talab etadi. Avvalo, boshlang'ich sinf darsliklarida til materiali soddalashtirilishi, qisqa va ravon matnlardan foydalanilishi, ko'rgazmali vositalar soni ko'paytirilishi, o'yin elementlari va harakatga asoslangan mashg'ulotlarga keng o'rin berilishi lozim. Bu yoshdagi bolalar uchun rang-barang rasmlar topshiriqlar, eshitish-tushunish mashqlariga boy audiomateriallar, qisqa dialog va rolli o'yinlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. O'rta sinflar uchun darsliklarni takomillashtirishda grammatik qoidalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kommunikativ vaziyatlarda qo'llashga imkon beruvchi mashqlarga ustuvor o'rin berish, mantiqiy fikrlashni rag'batlantiruvchi matnlar, savol-javoblar, suhbatlar va kichik tadqiqot topshiriqlarini ko'paytirish zarur. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darsliklar tarkibiga interfaol metodlarga asoslangan topshiriqlar, muammoli vaziyatli savollar va ijodiy yondashuvni talab qiladigan mashqlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Yuqori sinf darsliklarini takomillashtirish jarayonida esa mavzularning ilmiy-uslubiy chuqurligi, tahliliy topshiriqlarning yetarliligi, matnlarning mazmungan boyligi, nutqiy faoliyatni kengaytiruvchi munozara, taqdimot, esse va loyiha ishlari kabi topshiriqlarning ulushi oshirilishi lozim. Bu yoshdagi o'quvchilar real hayotga mos muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi vaziyatlar, kasbga yo'naltirilgan matnlar va tilning stilistik imkoniyatlarini anglashga yordam beradigan mashqlarga ehtiyoj sezadilar. Barcha bosqichlar uchun darsliklarda multimediya vositalaridan foydalanish, QR-kod orqali videodarslar, audio-matnlar, onlayn mashqlar bilan integratsiya qilish zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi. Shuningdek, darsliklarda milliy madaniyat, xalq og'zaki ijodi namunalarini yoshga mos tarzda kiritish tilni nafaqat o'rgatish, balki madaniy ongni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O'quv materialining murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, mavzular orasida uzviylikni ta'minlash, tushunchalarni izchil va tizimli ravishda berish, test topshiriqlarini turli shakllarda boyitish, o'quvchini faollikka undovchi topshiriqlar ulushini ko'paytirish darsliklarning sifatini sezilarli darajada oshiradi. Darsliklarni takomillashtirishning yana bir muhim yo'nalishi — differensial ta'lim tamoyilini qo'llash bo'lib, bunda o'quvchilarning individual qobiliyatlari va o'zlashtirish sur'atlariga mos topshiriqlarni taklif etish imkonini beruvchi ko'p darajali mashqlar tizimi yaratish zarur. Xulosa qilib aytganda, qozoq tili darsliklarini takomillashtirish o'quvchining yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari, zamonaviy ta'lim talablari va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan har tomonlama puxta metodik yondashuvni talab etadi.





### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qozoq tili darsliklarini yaratishda yosh xususiyatlari psixologiyasi tamoyillariga to'liq amal qilish til o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. Darsliklar mazmuni o'quvchilarning idrok, diqqat, tafakkur, xotira va nutq rivojlanish bosqichiga mos bo'lishi, ularni real kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etishga jalb qilishi muhim. Amaldagi darsliklar metodik nuqtayi nazardan ancha takomillashgan bo'lsa-da, psixologik moslik, kommunikativ yondashuv va interfaollikni kuchaytirish zarur. Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan darsliklar nafaqat o'quvchilarning til kompetensiyasini, balki ularning nutqiy madaniyati, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Vigotskiy L.S. "Psixik rivojlanish nazariyasi".
2. Elkonin D.B. "Bola psixologiyasi".
3. Leontev A.N. "Faoliyat, ong va shaxs".
4. Piaje J. "Bolalar tafakkurining rivojlanishi".
5. Qoshenova G., "Qozog'iston maktablarida qozoq tilini o'qitish metodikasi", Olmaota.

